



TURKISTON ULAMOLARINING JADIDCHILIK HARAKATI



QURBONOV HAYOT

STARS international university,
2-bosqich talabasi
qurbon199530@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp17-19>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tariximizning eng shonli voqealarining sababchilari bo'lgan jadidchilik harakatining namoyandalari haqida fikr – mulohazalar yuritilgan. Muallifning ta'kidlashicha, jadidchilik harakati vakillari el-urt manfaatini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishgan. Ular xalqimizni dunyo sivilizatsiyasida faol ishtirok etishi uchun ilm-fanni rivojlantirish zarurligiga muhim e'tibor qaratishgan. Ilmiy ishda ta'kidlanishicha, jadidchilik harakati o'sha davr Turkiston aholisi orasida “Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish mumkin” degan g'oyani ilgari surishda asosiy tashabbusni ko'rsatishgan. Shunisi e'tiborga sazovorki, jadidchilarning g'oyalari oradan ko'plab yillar o'tganiga qaramasdan, hozirgi avlodni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda ham o'z ahamiyatiga ega bo'lib kelmoqda. Muallifning mulohazasiga ko'ra, hozirgi o'zbek jamiyatidagi ilm-ma'rifatning rivojlanishi borasidagi ijobiy siljishlar bilan jadidlar tomonidan yaratilgan asarlarning har tomonlama o'rganilishi orasida uzviy bog'liqlik mavjuddir.

Kalit so'zlar: jadidlar, ma'rifat, maktab, harakat.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xalqimizning o'tmish tarixi, boy madaniy merosini o'rganish, uni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor berildi. Xususan, Birinchi yurtboshimiz I.A. Karimov o'zining “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q” asarida: “O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim”, – deb ta'kidlagani bejiz emas.

“Chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan ma'rifatparvar bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abduruf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi”.


Ma'rifatparvarlik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tsak. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot, chor imperiyasi yuritgan mustamlakachilik siyosati, xalqning og'ir

iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik ma'rifatparvarlarni jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishga chorladi.

Turkiston taraqqiyparvarlarining asosiy maqsadlari quyidagi yo'nalishdan iborat bo'lgan: 1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish. 2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish. 3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish. Shu dasturni amalga oshirish borasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra, maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Buxorolik ma'rifatparvar Ahmad Donish butun jamiyatni inson manfaatiga bo'ysundirmoq uchun, odamlar xulq-atvorlarini tubdan o'zgartirmoq lozim. Buning uchun, eng avvalo, inson o'zining kimligini, nimadan tashkil topganini bilmog'i zarur, deb hisoblardi. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining eng faol yo'lboshchisi hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomondan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291, 10 zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Soliqxo'ja o'g'li turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1780–1785) Samarqandga kelib qolgan.

U tarixda "Turkiston jadidlarining otasi" deb nom olgan. Mahmudxo'ja Behbudiy istiqloq uchun kurashning oldingi saflarida borganlardan edi. Fayzulla Xo'jayev Behbudiy haqida bunday degandi: "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak". Behbudiy Gaspirinskiy yo'lga qo'ygan "usuli jaded" maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi. Behbudiy 1913-yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini chiqaradi. Gazeta dastlab 2, so'ng 4 betlik bo'lib, haftada 2 marta chiqqani va moddiy tanglik tufayli 45-sonidan keyin to'xtaganini ma'lum. "Oyna" o'lkada o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har o'n besh kunda chiqqan. Ziyoz Said "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga doir materiallarida" bu jurnalning 2 yil davomida 68 soni (jami 1720 bet) dunyo yuzini ko'rib, 1915-yil 15-iyunda to'xtaganini ma'lum qiladi.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik ahvolidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr sari boshladi. "Padarkush" shu tariqa maydonga keldi. 1911-yilda yozilgan "Padarkush" dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi.



1-rasm. Jadidlarning maʼrifatparvarlik faoliyati

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, jadidchilik va maʼrifatparvarlik harakati namoyandalari, ularning hayoti va ijod yoʻli bizlarga ibrat maktabidir. Yashash tarzi izdan chiqqan oddiy xalq vakillarining gʻamini yeb, ularning hayotini isloh qilishga, ularga yordam berib, kelajak haqida oʻylashga undash bu oʻsha davr uchun haqiqiy mardlik va jasorat namunasi edi. Teatrning tashkil etilishi unda sahna asarlarining namoyishi ularning ongiga oyna kabi taʼsir koʻrsatdi. Matbuotchilikning shakllanishi esa bu gʻoyalarning xalq ichida tez va samarali tarqalishida mayoq vazifasini oʻtadi. Biz shunday maʼrifatparvar ajdodlarning avlodlari ekanimizdan faxrlanamiz va ularga mos kelajak avlodlari boʻlishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq”. Toshkent: “Sharq”, 1998.
2. Karimov I.A. “Biz oʻz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz”. Toshkent: “Oʻzbekiston”, 1999.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish maqsadida yoshlar oʻrtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 3721-sonli Qarori / “Xalq soʻzi” gazetasi. 2018-yil 12-may.
4. www.aks.uz.
5. www.edebi.net.